QORAXONIYLAR DAVLATIDA IQTISODIY TARAQQIYOT VA IJTIMOIY HAYOT

Toshtemirova Sevinch Jasur qizi – QarDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoraxoniylar davlatining iqtisodiy taraqqiyoti, pul muomalasi tizimi, yer egaligi shakllari hamda jamiyatning ijtimoiy qatlamlari tahlil qilinadi. Unda davlatning qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiq sohalaridagi rivojlanishi, tanga zarb etish va pul muomalasining iqtisodiy hayotdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, iqto, vaqf va mulk kabi yer egaligi shakllari hamda hukmdorlar, harbiylar, ruhoniylar, dehqonlar va hunarmandlardan iborat ijtimoiy qatlamlarning davlat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qoraxoniylar davlati, iqtisodiy taraqqiyot, pul muomalasi, tanga zarbi, yer egaligi, iqto, vaqf, mulk, ijtimoiy qatlamlar, dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo.

Аннотация: В данной статье анализируются экономическое развитие государства Караханидов, система денежного обращения, формы землевладения и социальные слои общества. Рассматриваются развитие сельского хозяйства, ремесленного производства и торговли, а также роль чеканки монет и денежного обращения в экономической жизни государства. Особое внимание уделено формам землевладения, таким как икта, вакф и частная собственность, а также вкладу правителей, военных, духовенства, земледельцев и ремесленников в развитие государства на основе исторических источников.

Ключевые слова: государство Караханидов, экономическое развитие, денежное обращение, чеканка монет, землевладение, икта, вакф, частная собственность, социальные слои, сельское хозяйство, ремесленничество, внутренняя и внешняя торговля.

Abstract: This article analyzes the economic development of the Karakhanid State, its monetary system, forms of land ownership, and the social structure of society. It examines the development of agriculture, handicrafts, and trade, as well as the role of coin minting and monetary circulation in the state's economy. The study also discusses forms of land ownership such as iqta, waqf, and private property, and evaluates the contribution of rulers, military officials, religious leaders, farmers, and craftsmen to the development of the state based on historical sources.

Keywords: Karakhanid State, economic development, monetary circulation, coin minting, land ownership, iqta, waqf, private property, social classes, agriculture, handicrafts, domestic and foreign trade.

Qoraxoniylar xonligining iqtisodiy rivojlanishi va yer egaligi masalalarini tadqiq etishga ham e`tibor qaratgan. Ularning bu borada ilgari surgan xulosalariga ko‘ra, ushbu “xonlikning hududi g‘arbda Qoraqum cho‘lidan sharqdagi Lobnor ko‘ligacha, shimolda Balxash ko‘lidan janubdagi Amudaryogacha bo‘lgan o‘lkan zaminni o‘z ichiga olgan. Xonlikning mavjud bo‘lgan davri 840-yildan 1212-yilgacha cho‘zilgan. Aholining etnik tarkibi ham murakkab bo‘lib, ularning bir qismi turkiy, yana bir tarkibiy bo‘lagi fors va arab tillarida so‘zlashgan. Bundan tashqari, ularning ijtimoiy hayoti bir xil bo‘lmagan. Ular yashagan joylarning geografik sharoiti, iqtisodiy asoslari, qonun qoidalari har xil bo‘lgan. Bu hol xonlikning iqtisodiy rivojlanishini murakkablashtirgan.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida Turkistonda migratsion jarayonlar nihoyatda kuchaygan. Ilgari chorvachilik bilan shug‘ullangan va uyg‘ur deb nomlangan qabilalar ittifoqi tarkibiga kirgan ko‘pgina turkiy qabilalar Yettisuv, Tangritog‘ va Oltoy tog‘lari etaklaridagi va ularning atrofidagi yaylov joylardan Turkistonning shaharlariga va dehqonchilik hududlariga ko‘chib kelgan. Shu sababli bularda chorvachilikdan dehqonchilikka o‘tish jarayoni kuzatilgan va shu tufayli ularning ijtimoiy turmushiga yangi mulkchilik shakli kirib kelgan. Bu o‘zgarish ularning dehqonchilikka mos

bo‘lgan hududlarga ega bo‘lish bilangina emas, balki ijtimoiy turmush darajasining yaxshilanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan edi. Yettisuvda istiqomat qilgan paytlarda janub tomondagi dehqonchilikka asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari va turmush shakli ularning ijtimoiy turmushining har bir sohasiga kirib borgan. Pomir g‘arbida yashayotgan turkiy qabilalarni eng avvalo dehqonchilikka xos afzalliklar o‘ziga jalb qilgan. Jumladan, ularni muhim dehqonchilik mahsulotlari, o‘troq va hashamatli turmush tarzi, qulay atrof muhit qiziqtirgan. Bu jihatlar turkiy qabilalarning tafakkuriga, ruhiyatiga va urf-odatlariga ta`sir ko‘rsatgan. Pomirning g‘arbida Qoraxoniylar davlati tashkil topishidan ilgari mavjud bo‘lgan yerga egalik qilish tuzumi saqlanib qoldi. Qoraxoniylar yerning bir qismini xon jamoatidagilarga nasabli zamin qilib berdi. Bunday yerlarga ega bo‘lganlar “ilikxonlar” deb atalgan. Qolgan qismi Somoniylar xonligining tuzumi bo‘yicha, “iqta” nomi bilan uyg‘ur zodagonlariga va boshqa chorvador qabilalarning boshliqlariga umrbod zamin qilib berilgan. Nasabli va suyurg‘ol yerlarga ega bo‘lganlar ma`lum shartlarni bajarganlaridan so‘ng, ya`ni siyosiy, iqtisodiy va harbiy majburiyatlarni o‘z zimmalariga olgandan keyingina o‘z erlaridan bahramand bo‘la olganlar. Ular orasidagi farq shundan iborat bo‘lganki, ilexxonlarga berilgan yerlarga ularning bola-chaqalari vorislik qila olgan va olingan nasab yerlar doirasida yer egalari boj olish, so‘roq qilish huquqiga ega bo‘lgan. Lekin ularga o’z hududlari doirasida qo‘shin tashkil qilish va ma’muriy apparatlarni tuzish mumkin bo‘lmagan. “Iqta” (iqta`) shakldagi yerlarga ega bo‘lganlarning bola-chaqalari berilgan yerlarga bevosita vorislik qilolmaganlar. Ma’lum bir vaziyatda vorislik huquqiga ega bo‘lish uchun hukumatning ruxsatini olish shart bo‘lgan.[1]

Qoraxoniylar davlati aholisining katta bir qismi chorvachilik bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun xoqon jamoatidagi amaldorlarga yer va suvdan tashqari yaylov ham taqsimlab berilgan. Shulardan xulosa qilsa bo‘ladiki, elikxon va ikkita yer taqsimoti Qoraxoniylar xoqonligining Markaziy Osiyo yaylovlarida va Movarounnahr hududida

1 . Негматов Н. Давлати Сомониён ва Қарахониён. — Душанбе: Ирфон, 1997.

yer, suv va yaylovlarga egadorlik qilishning asosiy shakli bo‘lib qolgan. Nasabli yerlarni egallagan elikxonlar bilan ikkita yerlarini egallagan amaldorlar bir taraf bo‘lib jamiyatdagi mulkdorlar lagerini, yakka dehqonlar bilan ijarakashlar esa kambag‘allar lagerini tashkil qilgan. Birinchi lager safini tarkibida Qoraxoniylar xoqonligining xoqon jamoati, uyg‘ur va qarluq amaldorlari hamda boshqa yer egalari to‘ldirgan. Ikkinchi lager esa barcha aholi, qabila va urug‘larga tobe bo‘lgan mehnatkash fuqarolardan iborat bo‘lgan. Qoraxoniylar xoqonligining iqtisodi dehqonchilikdan boshqa savdo, konchilik va qo‘l hunarmandchilik sohalaridan tashkil topgan edi.[2]

Qoraxoniylar xoqonligi davrida metallardan qilingan pullarning, ya’ni tangalarning ko‘p miqdorda zarb qilinganligi o‘sha zamonda savdo ishlarining nihoyatda avj olganidan nishonadir. Bu pullarning dunyodagi ko‘p joylaridan, jumladan Volga daryosi, Qora dengiz bo‘ylari, Nil daryosi atrofidan topilganligi Qoraxoniylar xoqonligi hududidan yo‘lga chiqqan savdo karvonlarining muntazam qatnab turganligidan, Xitoydagi Sun sulolasi, Lyao deb nomlangan qoraxitoylar davlati, Shichjou uyg‘ur xonligi, Fors, Sharqiy Rim imperiyasi, Rus knyazliklari, hatto Misr kabi joylar bilan ham savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanganidan dalolat beradi. Qoraxoniylar xoqonligida savdo ishlarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asarida ham aks ettirilgan. Asar muallifi savdo bilan shug‘ullanuvchilarga hurmat bildirish bilan birga odamlarning ular bilan inoq bo‘lishiga, ularga o‘z eshik-darvozalarini kengroq ochib berishga undagan. Savdo-sotiq va sanoat turlarining rivojlanishi shaharlar barpo bo‘lishining asosiy mezoni bo‘lgan. Chorvachilik turmushiga odatlangan amaldorlar uchun shaharlar yangi hayot belgisi edi. Yaylovlardan shaharlarga ko‘chib keluvchilar soni ko‘paya boshladi. Bu hol shahar aholisining tez ko‘payishiga, qurilish ishlarining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Savdo ishlarining yanada gullab-yashnashi shaharlarning moddiy va ma’naviy turmushini boyitdi va jonlantirib bordi. Torim vohasidagi Qashqar, Yarkand, Xo‘tan hamda Somoniylar xonligining keyingi davrlarida yuz bergan urushlar natijasida

2 Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2017.

vayron bo‘lgan Buxoro, Samarqand, Farg‘ona kabi shaharlar tiklandi va yanada rivojlanmoqda. Savdo ishlarining taraqqiy etib borishiga uyg‘unlashish maqsadida bu shaharlar o‘rtasidagi qadimiy savdo yo‘llarida yangi karvonsaroy va uylar paydo bo‘ldi. Qoraxoniylar xoqonligi davrida paxtachilik, to‘qimachilik, konchilik, metallurgiya, shahar qurilishi, kul hunarmandchiligi kabi sohalar yuksak darajada rivojlangan. Bu esa davlatning xalqaro savdodagi mavqeini baland tutgan. Mazkur xoqonlik zamonasida paxtadan to‘qilgan gulink matolar Xitoyga eksport qilingan. Vey Linytaoning ta’riflashicha, Qoraxoniylar xoqonligida qo‘l hunarmandchilik sohasida zargarlik, to‘qimachilik, oyna, sopol va shisha idishlar, egar-jabduq, qog‘oz, gilam ishlab chiqarish yuksalgan. Samarqandda ishlab chiqarilgan “Samarqand qog‘ozi” nihoyatda mashhur bo‘lgan. Konchilik sohasida, oltin qazib chiqarishda Zarafshon daryosining yuqori oqimi atrofi mashhur bo‘lgan. Konchilikda quduq qazib yer ostidan ma’dan olish usulidan foydalanilgan. Ayrim quduqlarning chuqurligi 156 metrga yetgan.[3]

Xulosa qilib aytganda, Qoraxoniylar davlati iqtisodiy jihatdan yuksak taraqqiy etgan o‘rta asr davlatlaridan biri hisoblanadi. Davlat iqtisodiyotining asosini dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va ichki hamda tashqi savdo tashkil etgan. Buyuk Ipak yo‘li orqali olib borilgan savdo aloqalari mamlakat iqtisodiy qudratini mustahkamlashga xizmat qilgan. Pul muomalasining rivojlanishi, turli qiymatdagi tangalarning zarb etilishi hamda ularning savdo munosabatlarida keng qo‘llanilishi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlagan. Qoraxoniylar davrida yer egaligining iqto, mulk va vaqf kabi shakllari keng tarqalib, davlat boshqaruvi va xo‘jalik tizimining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu yer egaligi tizimi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rag‘batlantirish bilan birga, davlatning moliyaviy va harbiy tayanchini ham mustahkamlagan. Jamiyat hukmdorlar, amaldorlar, harbiylar, ruhoniylar, savdogarlar, hunarmandlar va dehqonlardan iborat ijtimoiy qatlamlarga bo‘lingan bo‘lib, har bir qatlam davlat hayotida o‘ziga xos vazifani bajargan. Ushbu

3 Негматов Н. Давлати Сомониён ва Қарахониён. — Душанбе: Ирфон, 1997.

tizim mamlakatda siyosiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аҳмад ибн Маҳмуд. Тарихи Мулуки Туркистон. — Тошкент: Фан, 1992.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2017.
3. Негматов Н. Давлати Сомониён ва Қарахониён. — Душанбе: Ирфон, 1997.
4. Бўриев О. Ўзбекистон тарихи (Қорахонийлар даври). — Тошкент: Ўқитувчи, 2010.